

FAXRIY HIRAVIYNING “RAVZAT US-SALOTIN” TAZKIRASIDA XALIL SULTON ZIKRI

Fotima Davlatova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
fotimadavlatova1010@gmail.com

Annotatsiya: Hirot adabiy markazining taniqli adibi, shoir, tazkiranavis zullisonayn sifatida tanilgan Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” tazkirasida 1551-1555-yillarda yozilgan bo‘lib, XVI asrgacha bo‘lgan davrda Movorounnahr, Xuroson, Iroq, Hindiston hamda Rumda yashagan ijodkor podshoh va podshohzodalar, hukmdorlar dargohida yuksak mavqega ega bo‘lgan, nazm ta’biga ega amirlarning shaxsiyati va ijodiy faoliyati xususida ma’lumot berilgan. Faxriy Hiraviy Alisher Navoiyning “Majolis-un-nafois” asarini forscha tarjima qilgan. Mazkur asarini tuzishda ham aynan Navoiy yozmalaridan unumli foydalangan. Tazkirada 36 nafar Temuriy ijodkor sultonlar shoirliği xususida fikr yuritilgan. Jumladan Xalil Sulton, Abubakr mirzo, Botir mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Ulug‘bek mirzo, Botir Qalandar, Abdullatif mirzo kabilarni sanash mumkin. Mazkur maqolada “Ravzat us-salotin” tazkirasining muallif tomonidan III bobida nomi zikr qilingan. Maqolada “Ravzat us-salotin”da temuriyodalardan Xalil Sulton haqida qanday ma’lumotlar berilgani va boshqa manbalardagi qaydlar bilan farqli jihatlarini solishtirish asosida muhim xulosalarga kelish maqsad qilib olingan.

Kalit so‘zlar: Tazkira, tarix, Xalil Sulton, manba, sohibqiron, shoir, davr, sulton, asar.

Abstract: “Rawzat us-Salatin” Tazkir of Fakhri Hirawi, known as the well-known writer, poet, tazkiranavis Zullisanayn of Herat’s literary center, was written in 1551-1555, who has a high position in the court of princes, rulers, verse information is given about the personality and creative activity of the emirs. Honorable Hiravi translated Alisher Navoi’s work “Majolis-un-nafais” into Persian. He made good use of Navoi’s writings in the composition of this work. Tazkira reflects on the poetry of 36 creative Timurid sultans. Khalil Sultan, Abu Bakr Mirza, Batir Mirza, Sultan Mahmud Mirza, Ulugbek Mirza, Batir Qalandar, Abdullatif Mirza can be counted among them. In this article, the name of “Ravzat us-salotin” tazkir is mentioned by the author in chapter III. The aim of the article is to draw important conclusions based on the information about Khalil Sultan from the Timurids in “Ravzat us-Salatin” and comparing their differences with the records in other sources.

Key words: Tazkira, history, Khalil Sultan, source, owner, poet, period, Sultan, work.

Абстрактный: «Равзат ус-Салатин» Таззира Фахри Хирави, известного как писатель, поэт, тазкиранавис Зуллисанайн литературного центра Герата, был написан в 1551-1555 годах, занимавшим высокое положение при дворе князей, правителей, стихосложение. даются сведения о личности и творческой деятельности эмиров. Достопочтенный Хирави перевел на персидский язык произведение Алишера Навои «Маджолис-ун-нафаис». При составлении этой работы он удачно использовал сочинения Навои. Тазkira размышляет о поэзии 36 творческих султанов Тимуридов. К ним можно причислить Халила Султана, Абу Бакра Мирзу, Батира Мирзу, Султана Махмуда Мирзу, Улугбека Мирзу, Батыра Каландара, Абдулатифа Мирзу. В данной статье имя тазкира «Равзат ус-салотин» упоминается автором в главе III. Цель статьи - сделать важные выводы на основе сведений о Халил Султানে от Тимуридов в «Равзат ус-Салатин» и сопоставления их различий с записями в других источниках.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Ключевые слова: Тазкира, история, Халил Султан, источник, владелец, поэт, период, Султан, произведение.

KIRISH. Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” tazkirasini an’anaviy Allohga hamd va payg‘ambarimizga na’t bilan shunday boshlanadi: “Olam sultonlarining iqbol ravzasini adolat va ehson rayhoni bilan muzayyan va muattar qilgan Tangriga beqiyos sipos va sito‘yish bo‘lsin. Va rahmat osmonidan oftobdek – **“Va ma arsalnaka illa rahmatan lil alamin”** porlagan Rasulga durudu nomahdud va salavoti noma’tud bo‘lsin”¹. Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari adabiyot va san’atga yaqin kishilar edi. Xususan, Xalil Sulton Mirzo Mirinshoh Mirzoning uchinchi o‘g‘li (1384-1411) mard, jasur amirzodalardan bo‘lgan, Saroy Mulkxonim (Bibixonim) tarbiya qilgan. Temurning Hindiston yurishida qatnashib, o‘zining harbiy salohiyati bilan ulug‘ bobosi rag‘batini qozongan Xalil Sulton 1402-yilda Turkiston hukmroni qilib tayinlangan edi.² Sohibqironning hindistonga qilingan harbiy yurishida (1398-yil, aprel) Shahzoda Xalil Sulton Mirzo dovyuraklik bilan bir filning egasini yengib, filni minib bobosiga sovg‘a sifatida olib keladi. Shu kuni Temur qo‘shini g‘alaba qozonadi. Askarlarning mardonavor jang qilganini eshitgan Temur xursandchilikdan yig‘lagani va yerga sajda qilgani tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan. Xalil Sulton oddiy hunarmand oilasida o‘sgan Shodimulkning ta’rifga sig‘maydigan go‘zalligiga asir bo‘ladi. Ularning ishq-muhabbatlari el orasida gap-so‘z bo‘lib, Sohibqironning qahriga uchraydi. Xalil sultonga uni tarbiyalab o‘stirgan momosi Bibixonim Amir Temur jahlidan tushganidan foydalanib yordam beradi. “Hazratim, Amir Sayfiddin Shodimulkni hali nikohlab olmagan ekan. Boshi ochiq bo‘lgani uchun Xalil Sulton uni nikohlab olibdilar. Men o‘zim borib ko‘rdim “degan so‘zlari bilan nevarasi Xalil Sultonni afv etishiga sababchi bo‘lganligini anglashimiz mumkin. Sohibqironning Xitoyga qilgan yurishida Xalil Sulton qo‘shinning o‘ng qanoti boshlig‘i etib tayinlangan. “Xalil Sulton Xitoy yurishida mening eng ishongan sarkardalarimdan bo‘lg‘ay“ - degan so‘zlari Pirimqul Qodirovning “Shohrux va Gavharshod” tarixiy romanida ilgari surilganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Shu o‘rinda Temuriy mirzolar haqidagi qarashlar, aynan Xalil Sultonga xos xususiyatlar bir qancha manbalarda, jumladan: Alisher Navoiyning “Majolis un nafois”, Xoja Ismat Buxoriy, Mir Ma’sumning “Tarixi sind” asari va boshqa mashhur allomalar manbalaridan o‘rin olgan.

ASOSIY QISM. Mumtoz she’riyatning zukko bilimdoni, adabiyotshunos olima Suyima G‘aniyeva Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” tazkirasiga oid o‘z

¹ Abdulaziz Mansur, Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasini. 2001–B. 216. Qur’oni Karim, Anbiyo surasi, 107-oyat

² Pirimqul Qodirov. “Shohrux va Gavharshod” tarixiy romani.–Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2009–B.120

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

taqrizida shunday keltiradi: “Kunlarning birida Shoh Hasan huzurida she’riyat xususida so‘z ketar edi, ul janob: “Xusayn Boyqaro “Devon”larini bizga sovg‘a qildilar, deya ta’zim va da’vat yuzasidan shunday baytni o‘qidilar:

*Suxan nazdi suxandon buzurgvor buvad,
Suxan osmon omad, suxan na xor buvad.*

(So‘z uni biluvchilar nazdida ulug‘vor bo‘ladi,
So‘z osmondan tushgan ,so‘z xor bo‘lmaydi)

Bu ta’zim, bu hurmatni mulohaza etgach, menda nazm ibtidosidan boshlab she’riyat bilan mashg‘ul bo‘lgan sultonlar haqida asar yozish niyati paydo bo‘ldi va bu tazkira yaratildi, unga “Ravzat us-salotin” nomi berildi”.

Tazkirada o‘rin olgan she’rga mayl ko‘rsatgan Samarqand-u Xurosonning Amir Temur Ko‘ragon avlodidan bo‘lgan Sultonlar haqidagi III bobi aynan Xalil Sulton zikri bilan boshlanganligining o‘ziyoq diqqatga molik. Unga³ “Bag‘oyat xushtab,zarif va nuktaguzor (mazmunni sharhlovchi,ma’noni izohlovchi) edi. Va uning majlisida hamisha xushtablar hozir bo‘lardilar. O‘zi ham she’rni yaxshi aytar edi”, - degan g‘oyat go‘zal ta’rif berilgan. Va bunga dalil sifatida Temuriy hukmdorlar boshqaruvidagi davrning ijtimoiy-ma’naviy hayotining rivojida o‘z hissasini qo‘shgan shoir Xoja Ismat Buxoriy devonidan Xalil Sultonga atalgan bayt keltiradi. Matla’:

*Dil kabob ast ki az u sho‘r barangixtaand
Va-z namakdoni Xalilash namaki rixtaand*

Ya’ni Faxriy Hiraviy buning mazmunini shunday izohlaydi;
[Muhabbatni qo‘zg‘atganlaridan dil kabobdir
Va Xalilining tuzdonidan tuzni to‘kdilar].

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, ya’ni Xalil Sulton va Xo‘ja Ismat Buxoriy o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor edi? Bu savolga javob berish uchun manbalarga murojaat etamiz.

Xalil Sulton Amir Temur vafotidan keyin Samarqand Taxtini egallaydi va 1405-1409 yillarda hukmronlik qiladi. Aynan mana shu vaqt mobaynida Xoja Ismatillo Xalil Sulton saroyi shoiri edi.Keyinchalik yana taxt uchun kurashlar boshlanib,

³ Faxriy Hiraviy."Ravzat us-salotin" tazkira .-Toshkent:"Mumtoz so'z",2014.-B.42.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Samarqand taxtiga Ulug‘bek kelgach, Xoja Ismatullo saroy xizmatini tark etadi va darveshlar orasida bo‘lishni afzal ko‘radi.

Hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois”da yozishicha: “Xoja Ismatullo Movarounnahr buzurgzodalaridandur. Zohir Ilmin takmil qilg‘ondur. G‘oyat xushtab‘ligidan o‘zin she‘rga mansub qilib devoni mashhur bo‘ldi va Xalil Sulton otig‘a yaxshi qasidalari bor: Xojaningdurkim (matlaa’):

*Dil kabobest k-az u sho‘r barangextaand ,
Vaz namakdoni Xalilash namake rextaand .*

Mazmuni: Yurak kabobdir undan sho‘r [g‘avg‘o] qo‘zg‘atganlar, chunki u yurakka Xalil (chin do‘st,demakdir) tuzdonidan tuz sepganlar.

Va Xalil Sulton ash‘orining devoni ta‘rifida rangin qasidasi bor. Matlai budurkim:

*In bahri begaronki, jahonest dar barash,
G‘avvosi aqli kull nabarad pay ba gavharash .*

Mazmuni: Bu bepoyon dengiz jahonni o‘z ichiga olgandir . Ilohiy aql g‘avvosi undan gavharni payqay olmaydi.

Bundan shu narsa aniq bo‘ladiki, Xoja Ismat Buxoriy Xalil Sulton Mirzo shaxsiyatiga ijobiy fikrda bo‘lgan va shu boisdan ham o‘z devonida Sulton Mirzoga atab uni madh etuvchi ushbu qasidani bitgan.

Xalil Sultonning haqiqatan zarif ya‘ni g‘oyat go‘zal aql zakovatga ega, ziyrak, o‘tkir qalam egasi ekanligining belgisi sifatida Sulton Ahmadning Amir Temurga yozgan qit‘asiga yo‘llagan javobidan ham amin bo‘lamiz.

Sulton Ahmadning Amir Temurga yo‘llagan qit‘asi quyidagicha edi. Qit‘a:

*Gardon chiro nihim jafoi zamona ro,
Minnat chiro kashim ba har kori muxtasar.
Daryovu kuhro beguzorimu beguzarim,
Simurg‘vor zeri pirohanim xangbar.
Yo bar murod bar sari gardun nihim poy,
Yo mardvor dar sari himmat kunim sar.*

[Ya‘ni:

Nima uchun zamon jafosiga bo‘yin tutamiz,

Nima uchun har qanday arzimasi ish uchun minnat chekamiz.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Nima uchun ostimizda oq ot bo‘lsa ham ko‘ylak ostida.

Semurg‘dek daryo va toqqa oyoq qo‘yamizu o‘tamiz,

Yo murod poyiga bosh egib qadam qo‘yamiz,

Yo mardlardek himmat eshigiga bosh qo‘yamiz.]

Sulton Ahmadning kibr otiga minib mag‘rurlik martabasida yozgan ushbu qit‘asini eshitib nihoyatda g‘azablanadi va shunday deydi:⁴ “Agar menda nazm qobiliyati bo‘lganda edi ,unga javob yozgan bo‘lardim”.Va buyuradi: “Mening farzandlarimdan qay biri bunga javob yo‘llay oladi”, - deb so‘raganida Xalil Sulton buyruqqa ko‘ra o‘z qit‘asini yozib yuboradi. Qit‘a quyidagicha edi:

Gardan manih jafoi zamonro va sar mapich,

Kori buzurgro natavon kard muxtasar.

Simurg‘vor ar che kuni qasdi Ko‘hi Kof,

Chin sa‘vai xirad bosh va furu riz bolu par.

Birun ko‘p az dimog‘ xayoli mahol ro,

To dar sarat digar nashavad sad hazor sar.

[Ya‘ni:

Bo‘yningni zamona jafosiga tutma va boshingni burma,

Ulug‘ ishni agar qisqa qilishga qurbing yetmasa.

Semurg‘dek Ko‘hi Qofning qasдини nima qilasan,

Sa‘vadek aqlli bo‘l va bolu paringni to‘k.

Boshingdan amalga oshmaydigan xayolni chiqar,

Toki boshingda yuz minglab boshlar halok bo‘lmasidan oldin.

Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davrida yashab ijod etgan shoirlardan yana biri Sakkokiy (XIV asr oxiri –XV asr birinchi yarmi) Temuriyzodalardan Xalil Sultonga bag‘ishlab o‘zining qo‘lyozma devonida 30 baytdan tashkil topgan bir qasida bo‘lib, unda:

Tarixqa sakkiz yuz dog‘i o‘n erdiyu qadr oqshomi,

Bir oy tug‘ildi dunyoda kim mamlakatda xon erur.

⁴ Faxriy Hiraviy. "Ravzat us-salotin" tazkira.–Toshkent:"Mumtoz so‘z ",2014.–B.43.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Misralari keltirilgan bo‘lib, ushbu misralardagi Xalil Sultonga oid e’tirofi orqali shuni anglashimiz mumkinki: “Sakkokiyning Xalil Sultonga hurmati yuksak darajada bo‘lgan. Ya’ni uni qadr kechasida tug‘ilgan tunni yoritguvchi oyga qiyoslanib, badiiy jihatdan o‘ta jozibador shaklda yozilganligini anglaymiz .

Xalil Sulton Mirzo haqida bu kabi ijobiy qarashlar bilan bir qatorda ,tarixiy manbalarida salbiy qarashlarga ham guvoh bo‘lamiz.Xususan, Temuriylar davridagi siyosiy jarayonlardan, Sohibqiron vafotidan keyingi taxt uchun kurash voqe’alarini keltirishimiz mumkin:

⁵Sohibqiron 1405-yil 18-fevral kuni Xitoy tomonga yurish vaqtida, qahraton qishda, O‘tror shahrida vafot etadi. Amir Temur vafot etgach,uning bir necha o‘n yillar davomidagi sa’y-harakatlari natijasida barpo etilgan yirik saltanat parchalana boshlaydi. Saltanatning parchalanishiga Amir Temur vorislari o‘rtasidagi toj-taxt ilinjida uzoq yillar davom etgan o‘zaro ziddiyat va urushlar sabab bo‘ladi. Amir Temur vafoti oldidan taxt vorisi etib nabirasi Pirmuhammadni tayinlagan bo‘lsada, biroq, Mironshohning o‘g‘li Xalil Sulton o‘zboshimchalik bilan 1405-yil 18-mart kuni Samarqandni egallab, o‘zini Movarounnahrning oliy hukmdori etib tayinlaydi. Pirmuhammadning yo‘lini to‘sib,uning rejalarini buzib yuborish niyatida hatto u Amudaryoning o‘ng tomonidagi yerlarni ham o‘z hokimiyatiga qo‘shib oladi. Xalil Sulton garchi bobosidan qolgan xazinalar vositasida Sohibqironning nufuzli a‘yon va kibarlaridan ma’lum qismini o‘z tarafiga og‘dirib Movarounnahr taxtini egallagan bo‘lsada, ammo ko‘p vaqt o‘tmay u Amir Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarining kuchli noroziligi va isyoniga sabab bo‘ladi.

XULOSA. Demak, yuqorida keltirilgan xilma-xil fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, Amir Temur ko‘p mashhur muarrixlar ta’kidlab o‘tganidek ilmning qadriga yetadigan va uni rivojlantirishga bel bog‘lagan donishmand hukmdor bo‘lganligi temuriy shahzodalar hayoti va faoliyatida ham aks etgan. Xalil Sulton aslida bobosi boshlab bergan ilm va adolat yo‘lini davom ettirish va bobosiga munosib avlod bo‘lishni maqsad qilgan. Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” tazkirasida muallif tomonidan Xalil Sultonning yuksak darajada ta’riflanishi va birinchilardan zikr qilinishi asosli bo‘lib, bu fikr bir qancha manbalardagi ma’lumotlar bilan ham dalillanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurazzoq Samarqandiy, 2008 *”Matla us -sadayn va majma ul-bahrayn”* 1-jild. Toshkent – “O‘zbekiston” – 632 b.

⁵ Abdulahad Muhammadjonov .O‘zbekiston tarixi 7-sinf darslik.–Toshkent:”Sharq”,2017.–B.131-132.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

2. Abduqodir Hayitmetov, 1996. “*Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti*”. Toshkent, “Adabiyot va san’at.
3. Alisher Navoiy, 1997 “*Majolis-un-nafois*” Mukammal asarlar to‘plami, 13, Toshkent, Fan.
4. P. Qodirov, 2014 - “Shohrux va Gavharshod”, - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2-256 b.
5. Yaqub Saidov, 2021. O‘zbek adabiy tili tarixi: “Durdona nashriyoti”, -168 b.
6. Abdulahad Muhammadjonov, 2017. O‘zbekiston tarixi 7-sinf darslik. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, –160 b.
7. <https://www.ziyouz.com>
8. <https://.Oliymahad.uz>